ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA OQILA XOLMO‘MINOVNA

O‘ZBEK TILINING INTERNET AXBOROT MATNLARI KORPUSINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Andijon – 2022

UO‘K: 811.512.133’322.5
811.512.133’373.004

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation of sciences of the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)по филологическим наукам

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA OQILA XOLMO‘MINOVNA

O‘ZBEK TILINING INTERNET AXBOROT MATNLARI KORPUSINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Andijon – 2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Fil1018 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Andijon davlat universiteti veb-sahifasi (www.adu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Azimova Iroda Alisherovna** filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Nabiyeva Diloro Abduxamidovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Eshmuminov Asqar Allamurodovich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD. 03/30.12.2019.Fil.60.02 raqamli Ilmiy Kengashning 2022-yil “___”_____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:170100, O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi 129-uy. Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi 129-uy. Tel.: 0 (374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil “___”_____ kuni tarqatildi.
(2022-yil “____”_____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.H.Shaxobitdinova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

F.F.Usmanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, f.f.b.f.d. (PhD)

M.E.Umarxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yarim asr davomida til tadqiqida amaliy tajribalar orqali xulosalar chiqarish, tilga mashina yordamida ishlov berish, turli dasturlar orqali lingvistik tadqiqotlar olib borishda yangicha yondashuvlar, turli yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Xuddi shunday yangi yo‘nalishlardan biri korpus lingvistikasi bo‘lib, bu sohada keng miqyosda ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, tillarning milliy korpuslarini yaratishga, mavjud korpuslarni rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida tilning mavjud imkoniyatlarini kengroq o‘rganish, til grammatikasining muammoli tomonlarini kontekstda aniqlash, tilda grammatik qoliplarni belgilash, ko‘p tarmoqli elektron lug‘atlar yaratish ishini yengillashtirish, tilni o‘rganishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, tilda avtomatik tarjima, qidiruv va kompyuter tahlilini yo‘lga qo‘yish, elektron darsliklar va lug‘atlar tayyorlash kabi masalalarni hal qilish uchun tillarda korpuslar yaratishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, tilning maxsus sohalar bo‘yicha korpusini qurish zaruratining mavjudligi tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda barcha sohalarda ish samaradorligini oshirish, insonlar mehnatini yengillashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha zarur islohotlar olib borilmoqda. Xuddi shuningdek, o‘zbek tilining maqomini oshirish, uning faol qo‘llanilishini ta’minlash yuzasidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlar mutaxassislar oldiga bir qator muhim vazifalarni qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 31 yillik bayrami tabrik nutqida “…o‘zbek tilining jahon maydonida, xususan, Internet axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, ona tilimizda ko‘plab yangi kompyuter dasturlarini yaratish bo‘yicha ham oldimizda turgan muhim va dolzarb vazifalarni hal qilishimiz zarur” deya ta’kidladi. O‘zbek tiliga e’tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi. “Davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish[1]” amalda olib borilayotgan har bir tadqiqotning ijtimoiy ahamiyati, amaliy natijadorligi muhimligini isbotlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // www.xabar.uz

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasi va korpuslarni yaratish tadqiqotlari 60-yillardayoq boshlangan. Ilk tadqiqot ishlari va korpuslar ingliz tilida yaratilgan. 90-yillarga kelib esa dunyoning juda ko‘p tillarida korpuslar yaratildi. An’anaviy va kompyuter tilshunosligida korpus lingvistikasining o‘rni, metodologiyasi, obyekti va vazifalari G.Lich, R.Garsid, J.Sinkler, L.Floverdev, T.Makkenri, A.Hardi, M.Makkarti, V.N.Frensis, G.Kennidi singari olimlarning tadqiqotlarida maxsus o‘rganilgan[2].

Korpuslarning ijtimoiy ahamiyati, korpus lingvistikasining keyingi taraqqiyot bosqichlari, internetdan korpus sifatida foydalanish, internet va korpus o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlari A.Kilgarrif, K.Styuart, G.Grefenstette, M.Hundt, N.Nesselhaf kabi tadqiqotchilar tomonidan mufassal yoritilib, masalaning nazariy asoslari tadqiq etilgan[3].

[2]Leech G. Corpus Annotation Schemes. / In Literary and Linguistic Computing. – Vol. 8, No. 4. Oxford University Press, 1993. – P. 275-281.; Leech G., Wilson A. Recommendations for the morphosyntactic annotation of corpora. / EAGLES Document EAG-TCWG-MAC/R, 1994. www.ilc.cnr.it/EAGLES/browse.html.; Leech G., Garside R., Steven E.A. The Automatic Grammatical Tagging of the LOB Corpus // ICAXE Ncwo, 1983. – p. 13-33. https://www.researchgate.net/publication/238760957; Garside R., Leech G., Sampson G. The CLAWS Word-tagging System. / The Computational Analysis of English: A Corpus-based Approach. London: Longman, 1987.; McEnery T., Wilson A. Corpus Linguistics (1st ed.). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1996; McEnery T., Hardie A. Corpus linguistics: Method, theory and practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2011; Francis W.N., Johansson S. Problems of Assembling and Computerizing Large Corpora. // Computer Corpora in English Language Research. – Bergen: Norwegian Computing Centre for the Humanities, 1982.; Francis W. N., Svartvik J. Language Corpora B.C. // Directions in Corpus Linguistics, Proceedings of Nobel Symposium 82 Stockholm, 1991.; Kennedy G. An Introduction to Corpus Linguistics. Harlow: Addison Wesley Longman, 1998.; Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford: Oxford University Press, 1991.; Flowerdew L. Corpus Linguistic Techniques Applied to Textlinguistics. 1998. – p. 541-552.; McCarthy M., O’Keefe A. What are corpora and how have they evolved?: The Routledge handbook of corpus linguistics. – London and New York, 2010.

[3] Kilgarriff A., Grefenstette G. 2003. Introduction to the special issue on the Web as corpus // Computational Linguistics 29(3). – p. 333-347.; Kilgarriff A. Web as corpus. http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi=10.1.1.108.2212&rep=rep1&type=pdf; Stuart K. New perspectives on corpus linguistics.; Grefenstette G. The WWW as a Resource for Example-Based MT Tasks. // Translating and the Computer. – London, 1999.; Grefenstette G. Nioche J. Estimation of English and non-English Language Use on the www. // RIAO (Recherche d’Informations Assistee par Ordinateur). – Paris, 2000.; Hundt M., Nesselhauf N., Biewer C. Corpus linguistics and the web. – Amsterdam-New York, 2007.; Hundt M., Nesselhauf N., Biewer C. Corpus linguistics and the web. – Amsterdam-New York, 2007.

T.Makkenri, R.Ksiao, R.Reppen, D.Biberlarning korpus lingvistikasi sohasidagi tadqiqotlari korpuslarning ta'lim jarayonida tutgan o'rni, til o'qitishda korpuslardan foydalanish prinsiplari, afzalliklari to'g'risida aniq va batafsil tasavvur hosil qilish imkoniyatini yaratadi[4].

Rus tilshunosligida V.Plungyan, V.P.Zaxarov, A.B.Kutuzovlar tomonidan amalga oshirilgan qator tadqiqotlar rus tilshunosligida korpus lingvistikasining alohida soha sifatida shakllanishida, rus milliy korpusining yaratilishida alohida ahamiyat kasb etadi[5].

O'zbek tilshunosligida korpus tilshunosligiga qadar kompyuter lingvistikasi sohasida bir talay muhim tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, A.Po'latov[6], S.Muhamedovlarning bir guruh olimlar hamkorligida amalga oshirgan tadqiqot ishlari[7], N.Abdurahmonova[8], M.Abjalovalarning[9] ilmiy natijalari shular jumlasidandir. Korpus lingvistikasi o'zbek tilshunosligida yangi va oxirgi yillarda jadal rivojlanayotgan soha bo'lganligi bois monografik planda amalga oshirilgan ishlar juda kam. Xususan, Sh.Hamroyevaning "O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari[10]" mavzusidagi dissertatsiyasi, hamda shu nomdagi monografiyasida[11] korpus lingvistikasining shakllanishi, taraqqiyoti va nazariy asoslari, mualliflik korpusini tuzishning o'ziga xos nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, mualliflik korpusi tuzishning umumiy va xususiy lingvistik asoslari bayon etilgan. Oxirgi yillarda o'zbek tilshunosligida ko'plab tadqiqot ishlari – dissertatsiya, maqola va tezislar e'lon qilinmoqda. Jumladan, A.Eshmo'minovning "O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi" mavzusidagi

[4] McEnery T., Xiao R., Tono Y. Corpus-based Language Studies: An Advanced Resource Book. Routledge, 2006.; Reppen R. Using corpora in the language classroom. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010.; Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics. Investigating Language Structures and Use. - Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

[5]Плунгян В. Перспективы: Корпусная лингвистика и корпус русского языка. https://www.youtube.com/watch?v=OBTLuLx962U; Захаров В.П. Корпусная лингвистика: учеб.-метод. Пособие / В.П. Захаров. – СПб., 2005.; Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика, 2015.

[6] Пўлатов А., Мўминова Т., Пўлатова И. Дунёвий ўзбек тили. Ўзбек тилида феъл шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилидаги кўринишлари. – Тошкент: Университет, 2003.; Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент, 2011.

[7] Мухамедов С.А., Пиотровский Г.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно – статистического исследования узбекских текстов. –Т.: Фан, 1986; Махмудов М.А., Пиотровская А.А., Садыков Т. Система машинного анализа и синтеза тюркской словоформы // Переработка текста методами инженерной лингвистики. – Минск, 1982.

[8] Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (содда гаплар мисолида): филол. фан. бўйича фалсафа доктори дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 49 б.; Abdurakhmonova N. Uzbek ontology of Uzbek language as example of adjective // Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков 363 "TurkLang-2018". (Труды конференции) – Ташкент: Издательско-полиграфический дом "Navoiy universiteti", 2018. – 320 с.

[9] Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)…дисс. –Фарғона, 2019.; Абжалова М. Матнларга авто-лингвистик ишлов бериш тизимлари // Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков "TurkLang-2018". (Труды конференции) – Ташкент: Издательско-полиграфический дом "Navoiy universiteti", 2018. – 320 с.

[10] Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)…дисс. – Бухоро, 2018 .–253 б.

[11] Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Монография. – Тошкент, 2020. – 229 б.

dissertatsiyasi[12], D.Axmedovaning “Atov birliklarini o‘zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari” mavzusidagi dissertatsiyasi[13], B.Mengliyev[14], G.Toirova[15], H.Ataboyevlarning[16] ilmiy izlanishlari natijalarini misol sifatida keltirish mumkin.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Kompyuter va korpus tilshunosligi – o‘zbek tilini sun’iy intellekt uchun modellashtirish va o‘zbek tilining milliy va xususiy korpuslarini yaratishning lingvistik bazasini tayyorlash” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbek tilshunosligida internet axborot matnlari korpusini yaratishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, korpusda matnlarni lingvistik annotatsiyalashning o‘ziga xos tamoyillarini aniqlash va o‘zbek tili elektron axborot matnlari korpusini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

internet matnlari asosida korpus yaratishning nazariy asoslarini aniqlash;

o‘zbek tili elektron axborot matnlari korpusini yaratishning o‘ziga xos muhim jihatlarini aniqlash;

o‘zbek tili korpusida matnlarni lingvistik annotatsiyalash algoritmini ishlab chiqish, ularning ishlash prinsipini tajriba natijalari orqali ko‘rish, korpusda natijalarni lingvistik tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tilidagi internet elektron axborot matnlari tanlandi, bunda kun.uz, daryo.uz, xabar.uz, sof.uz, gazeta.uz, qalampir.uz va UzA saytlaridagi 2020-2021-yillar davr oralig‘idagi barcha matnlar tadqiqot obyekti qilib olindi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilidagi internet elektron axborot matnlarining korpus yaratishda muhim bo‘lgan leksik-semantik va morfologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik usul va uning tahlil tamoyillaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili internet axborot matnlari korpusi platformasining lingvistik ta’minotini ishlab chiqish imkonini beruvchi axborot matnlaridagi lisoniy

[12] Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Қарши, 2019. – 137 б.

[13] Ахмедова Д. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Бухоро, 2020. –247 б.

[14] Mengliyev B. O‘zbek tili taraqqiyoti va rivojlanish omillari // “O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020.; Менглиев Б., Бобожонов С., Ҳамроева Ш. Ўзбек тилининг миллий корпуси. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/1241.htm

[15] Тоирова Г. Миллий корпус яратишнинг технологик жараёни хусусида // Ўзбекистонда хорижий тиллар. Электрон илмий-методик журнал. – Тошкент. 2020, № 2 (31), –Б.57– 64. https://journal.fledu.uz/uz/ 2-31-2020

[16] Ataboyev N. Problematic issues of corpus analysis and its shortcomings // ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (78), 2019.; Ataboyev N. Compiling dictionaries by using corpus analysis and its advantages // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) http://ijpsat.es/index.php/ijpsat/article/view/508

birliklarning leksik-semantik, struktur jihatlarini aniqlash orqali nutq birliklarini izohlash tamoyillari dalillangan;

o‘zbek tili internet axborot matnlari korpusida nutq birliklari morfologik annotatsiyalangan, bunda matnlardagi fe’llarning tasniflovchi kategoriyasi, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, harakat tarzi kategoriyasi, fe’lning o‘zgalovchi kategoriyasi, otlarning son kategoriyasi, sifatning daraja tasniflovchi kategoriyasi, sonning lug‘aviy-grammatik guruhi, ravish, taqlid, olmoshlarning morfologik ko‘rsatkichlari va yordamchi so‘zlarning lisoniy imkoniyatlari ishlab chiqilgan;

o‘zbek tili internet axborot matnlari korpusidagi lisoniy birliklar semantik annotatsiyalash imkonini beruvchi matnlardagi nutq birliklarining lug‘aviy-ma’noviy, lug‘aviy-mavzuviy guruhlari, lug‘aviy-mazmuniy maydoni aniqlangan;

annotatsiyalashda kontekstda uchragan nutq birliklarining turkumlarga ajratilishidagi omonim so‘zlar, affiksal omonimiya va omonimiyaga yondosh hodisalar muammosi, qo‘shma fe’llar va ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini aniqlash masalasi korpusda tajriba orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili elektron axborot matnlari korpusi qurilishi uchun texnik topshiriqlar ishlab chiqilib, ish jarayoni bosqichma-bosqich belgilandi;

o‘zbek tili internet axborot matnlari korpusi qurildi, sayt sifatida e’lon qilindi (https://uzkorpus.uz/ manzili ostida);

korpusda nutq birliklarini teglash uchun morfologik va semantik teglar amalda ishlab chiqildi, maxsus standart belgilar tanlandi;

korpusda nutq birliklari leksik-semantik va morfologik xususiyatlariga ko‘ra qo‘l mehnati va yarim avtomatik annotatsiyalandi;

korpus oldiga qo‘yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosa, bilimlar o‘zbek tilshunosligi, xususan, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi uchun muhim, zaruriy ilmiy bilimlar berishi, tilshunoslikda yangi lingvistik tahlil usullarining paydo bo‘lishiga asos bo‘lishi, leksikografiyaning rivojlanishiga hissa qo‘shishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tanlangan muammoning aniq qo‘yilganligi, korpus qurilishi boshqa tillar korpuslari bilan uzoq muddatli kuzatuv-tajriba orqali o‘rganilganligi, to‘plangan materiallar tahlili orqali o‘zbek tili korpusi qurilganligi, korpusda lingvistik tahlil amallari o‘tkazilib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati kompyuter lingvistikasi fanida yangi tadqiqotlar yaratishda nazariy ahamiyat kasb etishi, o‘zbek tilini formallashtirish, kompyuter tilini yaratish bo‘yicha ilmiy qarashlar orqali boyishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati undagi materiallar, natija va xulosalar o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi fanida, bakalavriat va magistratura ta’lim yo‘nalishlarida maxsus kurs, maxsus seminarlar o‘tishda manba va material vazifasini bajarishi, shuningdek, til yo‘nalishida, uslub bo‘yicha tadqiqotlar olib borishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

internet axborot matnlari korpusi platformasining lingvistik ta’minotini ishlab chiqish, til korpusi uchun o‘zbek tili birliklarini modellashtirish, lingvistik modellashtirish va belgilashda standart vositalarini ishlab chiqish, korpus yaratishda lingvistik modellardan foydalanishga oid xulosalardan 2017-2020-yillarda bajarilgan “Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian Universities” nomli ERASMUS CLASS loyihasida foydalanilgan (ERASMUS+ ma’lumotnomasi, National Erasmus+ office – Uzbekistan; Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2021-yil 6-sentabrdagi 01/4-1464-sonli ma’lumotnomasi). Loyiha doirasida bajarilgan sillabuslar hamda yozilgan darslik til birliklarini modellashtirish bilan to‘ldirilgan;

o‘zbek tili internet axborot matnlari korpusini qurish texnologiyasi, korpusda nutq birliklarini morfologik va semantik annotatsiyalashga oid xulosalardan “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2020-2021-yillarda bajarilgan JHBL-20-sonli “Oila, mahalla va gender tengligi mavzusidagi badiiy asarlarning elektron korpusini yaratish” loyihasida foydalanilgan (“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2021-yil 8-sentabrdagi 01/09-517-sonli ma’lumotnomasi). Loyiha doirasida bajarilgan sillabuslar hamda yaratilgan loyihada korpus qurilishi bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanilgan;

o‘zbek tili internet axborot matnlari korpusida nutq birliklarini morfologik va semantik annotatsiyalash tamoyillarini ishlab chiqish, “Tug‘ro” nomli internet axborot matnlari korpus platformasida lingvistik tahlillar o‘tkazish hamda olingan amaliy natijalardan 2016-2020-yillarda bajarilgan 1-147-sonli “Theoretical issues of Azerbaijani-Uzbek-Turkmen linguistics” nomli fundamental loyihada foydalanilgan (Azərbaycan Respublikası Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası İmadəddin Nəsimi adina Dilçilik institutining 2021-yil 29-oktabrdagi 230-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

o‘zbek tili internet axborot matnlaridagi nutq birliklarini annotatsiyalash, lingvistik annotatsiyalashning tamoyillarini belgilash, til birliklarini morfologik va semantik izohlab, korpus platformasida lingvistik tahlillar o‘tkazish hamda amaliy natijani olishga oid umumiy xulosalardan Hoji Bayram Vali universitetida o‘qitiladigan “Araştırma teknikleri ve yayın etiği (LE0101100)” fanining ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarida foydalanilgan (Ankara, Hacı Bayram Veli üniversitesi Edebiyat fakültesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümüning 2021-yil 25-oktabrdagi ma’lumotnomasi). Natijada, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar mazmuni korpus platformasida lingvistik tahlillar o‘tkazish haqidagi ma’lumotlar bilan boyigan;

o‘zbek tilshunosligida milliy korpuslarning yaratilishi, o‘zbek tilini ona tili va chet tili sifatida o‘qitishda korpuslardan foydalanishga oid ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida “O‘zbekiston” telekanali orqali efirga uzatilgan ilmiy-ma’rifiy ko‘rsatuvlarda, xususan, “Oydin hayot live”, “Ta’lim va

taraqqiyot” ko‘rsatuvlarini tayyorlashda samarali foydalanilgan (O‘zbekiston teleradiokompaniyasining 2021-yil 5-iyuldagi 02-13-1129-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu teleko‘rsatuvlarning mazmuni ilmiy dalillar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 2ta respublika hamda 4ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ish: O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5ta maqola, jumladan, 3tasi respublika, 2ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Disseratatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 158 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Internet matnlari asosida korpus yaratishning nazariy asoslari**” deb nomlangan. Bobning “Korpus lingvistikasi tilshunoslik yo‘nalishi sifatida” deb nomlangan birinchi faslida korpusning tilda va tilshunoslik sohasida tutgan o‘rni, korpus lingvistikasining nazariy asoslari, korpuslar qanday mezonlar asosida shakllantirilishi tavsiflangan. Korpus – tilni yoki tilning o‘zgarishini to‘liq aks ettirish uchun tashqi mezonlar asosida tanlangan elektron shakldagi matnlar to‘plamidir. Lingvistik tadqiqotlar uchun ma’lumotlar manbayi sifatida ishlaydi[17].

Korpus har qanday sistematik matn to‘plamiga murojaat qilishi mumkin bo‘lsa-da, u bugungi kunda tor ma’noda ham ishlatiladi, odatda, kompyuterlashtirilgan muntazam matn to‘plamlariga murojaat qilish uchun ishlatiladi[18]. Umuman korpus – til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo‘ysundirilgan matnlar majmuyi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta’minot asosida joylashtirilgan matnlar jamlanmasi ta’rifini shakllantiradi.

Korpus lingvistikasining xususiyatlari:

– tabiiy matnlardan foydalanishning amaldagi qoliplarini empirik tahlil qiladi;

[17] Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. 2015. http://tc.utmn.ru/files/corpus_5.pdf

[18] Nadja Nesselhauf. Corpus linguistics: a practical introduction, 2005. http://www.as.uni-heidelberg.de/

– tahlil uchun asos sifatida korpusdan foydalanadi;
– lingvistik tahlillar maxsus korpus dasturlarida amalga oshiriladi;
– u sifat va miqdoriy tahlil metodlari asosida ish ko‘radi.

“Korpus lingvistikasining shakllanish tarixi”deb nomlangan 1.1.1-faslda korpus lingvistikasining shakllanish va rivojlanish bosqichlarining o‘ziga xosliklari, davrlashtirish masalasi yoritilgan.

Korpus lingvistikasi tarixiga murojaat qilganimizda ba’zi manbalarda uni 3 davrga ajratilganining guvohi bo‘lishimiz mumkin: erta korpus lingvistikasi davri (1950-yilgacha bo‘lgan davr), N.Chomskiy davri (1950-yillar) va zamonaviy korpus lingvistikasi (1960-yildan shu vaqtgacha bo‘lgan davr)[19].

T.Makkenri tadqiqotlarida korpus tilshunosligini, asosan, ikki bosqichga ajratib kuzatishni taklif qiladi. Korpus lingvistikasining shakllanish va rivojlanish tarixini besh bosqichga ajratish maqsadga muvofiq:

–XX asrning 1950-yillarigacha bo‘lgan davr: soha mavjud bo‘lmasa-da, ishning qog‘oz varianti mavjud davr;

–1950-1980-yillargacha bo‘lgan davr: N.Chomskiy nazariyasi ustunlik qilgan, korpuslar yaratish bo‘yicha tadqiqotlar boshlangan, tandiqiy baholash yuqori bo‘lgan davr;

–1990-2010-yillargacha bo‘lgan davr: dunyoda yetakchilik qilgan tillar miqyosida korpuslar yaratilishi avj olgan, metod va nazariyasi ishlab chiqilib ommalashtirilgan, ta’limda yangi metodikaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan, kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlari yuqori darajada rivojlangan davr;

–2010-yillardan bugungi kungacha bo‘lgan davr: barcha tillarda korpus yaratish tadqiqotlari ilgari surilgan, universal dasturlar imkoniyati kengaytirilgan, sohaning mustaqil institut darajasidagi mavqeyi, korpusdan foydalanish doirasining kengayishi yuz bergan davr;

–beshinchi bosqich: sun’iy intellekt bosqichiga yetish davri.

Birinchi bobning 1.1.2-fasli “Korpus lingvistikasining obyekti, metodi va vazifalari” deb nomlangan. Korpus tilshunosligining markazida korpus konsepti turadi. Namuna olish (sampling), muvozanat (balance) va til vakili (representativeness) bo‘lish korpus tilshunosligining asosiy nazariy tushunchalaridir[20]. A.Kutuzov korpus lingvistikasi kursida an’anaviy tilshunoslik va korpus tilshunosligi o‘rtasidagi farqlarni tushuntirib, korpus lingvistikasi oldiga muhim vazifalarni ham qo‘yadi:

– an’anaviy tilshunoslik tilni o‘rganishga e’tibor qaratsa, korpus tilshunosligi diqqat markazida nutqni o‘rganish turadi;

– an’anaviy tilshunoslikning maqsadi tilni tavsiflash, tushuntirish, korpus tilshunosligining maqsadi esa tilni maxsus tanlangan matnlar to‘plami shaklida nutqda qanday namoyon bo‘lgan bo‘lsa, xuddi shunday tasvirlashdir;

– tilshunoslik o‘z tadqiqotida nazariyadan tushuntirishga va nutqiy faktlarni tasdiqlashga o‘tadi, korpus tilshunosligi matn korpusining ma’lumotlariga tayanadi;

[19]Allan, K. The Oxford handbook of the history of linguistics. – Great Britain, 2013. – P. 343.
[20]Research methods in linguistics. Litosseliti. Continuum. 2010. https://www.academia.edu/29875281/Research_Methods_in_Linguistics_Litosseliti_Continuum_2010_pdf

– an’anaviy tilshunoslikda sifat bilan bog‘liq metodlar afzal ko‘rilsa, korpus tilshunosligida miqdoriy metodlar afzal;

– tilshunoslik til universaliyalarini tadqiq etsa, korpus tilshunosligida til universaliyalarining matnda uchrashi tahlil qilinadi;

– tilshunoslikda nutq materialini tanlashda, ularni tadqiq etishning empirik materiallarini aniqlashda til materiallariga asoslanilsa, korpus tilshunosligi xulosalarida korpuslardagi matnlar to‘plamida mavjud nutqiy faoliyatni kuzatishga asoslaniladi;

– tilshunoslik taqqoslashlar, baholashlarga asoslangan kashfiyotlarga ishonsa, korpus tilshunosligi empirik ma’lumotlarni qayta ishlashga asoslangan ilmiy kashfiyotga asoslanadi[21].

A.Kutuzov keltirgan taqqoslashlar orqali bir nechta muhim xulosalarni olish mumkin, jumladan, korpus tilshunosligi amaliy soha bo‘lib, tilga oid muhim xulosalarini faqat kontekstda uchraydigan nutq birliklarining xususiyatiga ko‘ra beradi, korpus tahlillari tilshunoslikda mavjud tahlil va usullarni to‘ldiradi.

Korpus lingvistikasida to‘rt xil tahlil usulini farqlash mumkin:

1. Kalit so‘zlar tahlili (Analysis of keywords). Bu AvaB korpuslarini solishtirganda uchraydigan so‘zlar tahlili. Bu miqdoriy analiz usuli bo‘lib, u til korpusida berilgan nutq birliklarini topish yoki topa olmaslik ehtimolini o‘rganadi. Bu metod korpuslardagi birliklarning statistikasi, uchrash chastotasi miqdorini beradi;

2. Birikmalarni tahlil qilish (Analysis of collocations). Birikmalar– so‘zlar oralig‘ida topilgan so‘zlardir (–/+ so‘zlar chap va o‘ng tomonga). Ushbu tahlil berilgan korpusdagi kontekstda so‘zni topish ehtimolini tekshiradigan statistik testlarga asoslangan;

3. Kollektiv tahlil (Colligation analysis). Bunga so‘z, so‘zlar qatori boshqa so‘zlar bilan qo‘shilib ketishga moyil bo‘lgan sintagmatik qoliplarni tahlil qilish kiradi. Qoliplashtirish leksik element va grammatik kontekst orasidagi aloqaga, uning fraza va gaplardagi sintaktik vazifasi, joylashuviga urg‘u beradi. Ehtimol, har bir so‘z o‘ziga xos kollektiv tahlilni taqdim etadi;

4. N-gramm. N-gramm tahlili hisoblash usuliga tayanadi, unda so‘zlarning satrlari 2,3,4,5 yoki 6 so‘zdan iborat guruhlarga guruhlangan va ularning chastotasi ko‘rib chiqilgan[22]. O‘zbek tili korpusini qurish jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan 4 usul olingan natijalarda namoyon bo‘lishini kuzatdik. Mazkur usullarni korpus lingvistikasidagi eng oddiy va muhim bo‘lgan usullar sifatida baholash mumkin.

Birinchi bobning 1.2-fasli “Internet matnlari asosida korpus yaratish” deb nomlangan. Bu faslda internet matnlarining til korpusi sifatidagi o‘rni va internet matnlari asosida korpus yaratishning nazariy asoslari aniqlangan. So‘nggi yillarda barcha tadqiqotchilar internetda mavjud maqolalar to‘plamidan, xususan, qo‘llanmalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar yozishda yoki muayyan sohalar bo‘yicha natijaviy xulosalarga ega bo‘lishda foydalanishmoqda. Grefenstette,

[21] Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – 2015. http://tc.utmn.ru/files/corpus_5.pdf

[22] Using corpus linguistics: research methods. http://www.perezparedes.es/research-methods-corpus-linguistics.

Nioke[23] va Jons hamda Ganilar[24] veb-resurslarning imkoniyatlarini elektron resurslar kam bo‘lgan tillar uchun til korpuslarining manbayi deya ta’kidlashgan, Resnik[25] esa ikki tilli parallel korpuslar manbayi sifatida o‘rgangan. Fuji va Ishika va ensiklopediya yozuvlarini yaratish uchun internetdan foydalanishganini yozishgan[26]. Grefenstette leksik ma’lumot manbayi sifatida internetga oid istiqbollar va tajribalarni taqdim etgan[27], chunki veb ko‘plab tillar uchun minglab kontekstli misollarni taqdim etadi, tillar uchun leksik yozuvlarni empirik dalillardan avtomatik ravishda topish imkoniyatlarini yaratadi. Kuzatuvlarimiz natijasida internetning quyidagi afzalliklarini belgiladik:

1. Til korpuslarini internetda mavjud matnlarning tayyor elektron variantidan qurish afzal hisoblanadi. Veb amaliy muammolar va cheksiz yangi ma’lumotlar oqimi sifatida qulay[28]. Internetda paydo bo‘lgan til birliklari, neologizmlar tez ommalashadi. Eng oxirgi yangi sohalar yuzasidan matnlar paydo bo‘ladi.

2. Internetdan olingan ma’lumotlar uchun URL manzili berilsa, mualliflik huquqi buzilmaydi. Korpuslardan foydalanish har doim ham ochiq bo‘lmaydi. Ba’zi til korpuslariga kirish uchun ro‘yxatdan o‘tish va muayyan miqdordagi to‘lov talab qilinadi. Internet esa barcha uchun ochiq va tekin ma’lumot olishda qulay manba hisoblanadi.

3. Internetda foydalanuvchi dunyo aholisining ko‘pchilik qatlamiga notanish bo‘lgan til namunalarini ham topishi mumkin. Hali korpusi tuzilmagan tillar yuzasidan ma’lumotlar olish imkoniyatiga ega.

Internetning korpus sifatida baholanishi bo‘yicha tarafdor qarashlar mavjud bo‘lsa-da, bir qancha e’tirozli munosabatlarni kuzatish mumkin.

– internet matn turlari va mavzu sohalariga nisbatan muvozanatli emas[29]. Internet matnlarning boy to‘plamiga ega bo‘lsa-da, ularda janr, uslub masalasi hal qilinmaydi.

– internetda matnlarning hajmi, ularning sifatlilik darajasi haqida ma’lumotga ega emasmiz. Matnlarda imloviy, uslubiy xatoliklar uchrash ehtimoli yuqori, chunki internetda filtrlash funksiyasi mavjud emas.

– internetdagi hujjatlar faqat matndan iborat emas, ro‘yxat, jadval, indeks va rasmlardan iborat bo‘ladi,[30] bu esa til korpusida o‘tkaziladigan lingvistik analiz va sintez tahlillar va ulardan olinadigan qimmatli xulosalarning to‘g‘riligiga shubha

[23] Grefenstette G., Nioche J. Estimation of English and non-English Language Use on the WWW. In proceedings of RIAO (Recherche d’Informations Assistee par Ordinateur), Paris, 2000.
[24] Jones R., Ghani R. Automatically building a corpus for a minority language from the web. 38th Meeting of the ACL, Proceedings of the Student Research Workshop. - Hong Kong. October 2000, pp. 29-36.
[25] Resnik P. Mining the web for bilingual text In proceedings of the 37th Meeting of ACL. - Maryalnd, USA, June 1999, pp. 527-534.
[26] Fujii A., Ishikawa T. Utilizing the world wide web as an encyclopedia: Extracting term descriptions from semi-structured text. In proceedings of the 38th Meeting of the ACL, Hong Kong, October 2000, pp. 488-495
[27] Grefenstette G. The WWW as a Resource for Example-Based MT Tasks. Invited Talk, ASLIB ‘Translating and the Computer’ conference. - London. October, 1999.
[28]Kilgarriff A. Web as corpus. http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi=10.1.1.108.2212&rep=rep1&ty
[29]Agirre E., Olatz A., Hovy E. and Martinez D. Enriching very large ontologies using the WWW. ECAI 2000, Workshop on Ontology Learning. – Berlin, 2000.
[30]Agirre E., Olatz A., Hovy E., Martinez D. Enriching very large ontologies using the WWW. ECAI 2000, Workshop on Ontology Learning. – Berlin, 2000.

uyg‘otadi. Shuningdek, tahlilga tortilgan vebsahifalarning muddati tugashi yoki bloklanishi mumkin[31]. Aniq va to‘g‘ri natijaga mukammal qurilgan korpus orqali erishish mumkin.

– ma’lumotlarni yig‘ish va korpus qurish jarayonida rejasiz, nazoratsiz va tahrir qilinmagan matnlar to‘plami tufayli korpusni qurishga mas’ul shaxslar yakunlanadigan barcha manbalarni to‘liq nazorat qila olmaydi[32].

Internet va til korpusining o‘xshash hamda farqli jihatlarini tahlilga tortishimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik: internet ma’lumotlari asosida til korpuslarini qurish arzon, kam vaqt sarflashga olib keladi. Internet yuklab olinadigan va keyin qayta ishlanadigan matnli ma’lumotlar manbayi sifatida baholanishi maqsadga muvofiq. Til korpusining vebdan farqli jihati uning oldiga qo‘yilgan maqsadiga bog‘liq.

Birinchi bobning uchinchi fasli “Internet matnlari asosida korpus yaratishda qo‘llanuvchi dasturlar va ularning tasnifi” deb nomlangan. Mazkur faslda korpus yaratilishida va korpus tahlillarida foydalaniluvchi dasturlar tasniflangan, yutuq va kamchiliklari aniqlangan. Korpus dasturlarini bajaradigan vazifasiga ko‘ra bir qancha guruhlarga ajratdik: matn yig‘uvchi dasturlar, izohlovchi (annotation) dasturlar, konkordans dasturlari, statistik tahlil qiluvchi, teglovchi (tagger), grammatik tahlil qiluvchi (parser), tokenlovchi, semantik tahlil qiluvchi, audio matnlarni tahlil qiluvchi va aralash tahlilni (mixed) amalga oshiruvchi dasturlar. AntConc, Sketch Engine va BootCat dasturlarining ishlash prinsiplari tahlil qilindi, “Tug‘ro” o‘zbek tili internet axborot matnlari korpusining dasturiy ta’minoti platformada alohida ishlab chiqildi (https://uzkorpus.uz/).

Dissertatsiya ishining **“O‘zbek tilidagi internet axborot matnlari korpus uchun asos sifatida”** deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi fasli “O‘zbek tilidagi elektron axborot matnlarining struktur-semantik xususiyatlari”deb ataladi. Bu faslda elektron axborot matnlarining tili va uslubi o‘rganildi, internet axborot matnlarining imkoniyatlari, unga qo‘yilgan talablar, leksik-semantik strukturasi tavsiflandi. “Tug‘ro” til korpusida tadqiqot obyektiga aylantirilgan xabar matnlarida narrativ, deskriptiv, argumentli, didaktik matn tiplarining barchasini uchratish mumkin. Xabar matnlari strukturasi tahlilida otli birikmalar ko‘pchilikni tashkil qildi. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasi”, “Butun Xitoy xalq vakillari kengashi”, “Ichki ishlar vaziri”, “Jinoyat kodeksi”, “Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi ijroiya qo‘mitasi” kabi murakkab til birliklari kontekstda uchraganda korpusda mazmuniy xususiyatiga ko‘ra bir butunlikda izohlandi.

Nutqimizda mavjud, ammo o‘zbek tili lug‘at boyligiga kirishga ulgurmagan qo‘shma fe’llar izohlandi. Korpusning teglangan 3000ta so‘zshakllarda qo‘shma fe’llar statistikasi 195tani tashkil etdi: bu raqamlar 100ta qo‘shma fe’lning takroriy qo‘llanishi bilan hisoblangan. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi 27ta: 16 marta uchragan KFSQning takroriy uchrash soni ham hisoblangan (diss. 5-ilova). Qo‘shma fe’llar statistikasi o‘rganilganda, internet xabar matnlarida eng ko‘p uchragan *tashkil etmoq* (12 marta), *joriy etmoq* (11 marta), *taqdim etmoq* (7 marta)

[31]Kilgarriff A. Web as corpus. http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi=10.1.1.108.2212&rep=rep1&ty
[32]Bouzou X. G. The Web as a Corpus A Multilingual Multipurpose Corpus. – Barcelona, 2018.

so‘zlari hisoblanadi. Kontekstda qo‘shma fe’llar fe’l so‘z turkumining turli nisbat va mayl shakllarida berilgan. Korpusda otli so‘z birikma, qo‘shma fe’l va ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasining statistikasi ham berildi.

O‘zbek tili lug‘ati va darsliklarida ayrim til birliklarining qaysi turkumga mansubligi masalasi ochiq qolganligi ko‘rindi. Masalan, *baribir, mazkur, shu bilan birga* nutq birliklari kontekstual mazmuni orqali turkumlandi. O‘zbek tili lug‘atida *bari* jamlovchi olmosh deb berilgan, *bari bir* esa “*hammasi birdek, hech qanday farqi yo‘q*” ma’nolari berilib, turkumga mansublik masalasi ochiq qolgan. Ammo xabar matnlarida *bari bir* so‘zshakli – *baribir* shaklida uchraydi. Lug‘atda esa bu haqida ma’lumot uchramaydi[33].

Bobning ikkinchi fasli “O‘zbek tilidagi elektron axborot matnlari asosida korpus yaratish uchun tanlangan dastur va uning o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlanib, unda o‘zbek tili internet axborot matnlari korpusining qurilish jarayoni yoritildi, bosqichlari, belgilash uchun teglarning tanlanishi, teglash jarayonining muammolari yoritildi.

O‘zbek tili internet axborot matnlari korpusida (https://uzkorpus.uz/) matnlarda uchragan nutq birliklarining morfologik va semantik xususiyatlari belgilangan teglar orqali annotatsiyalandi.

2.1-jadval. Fe’l so‘z turkumi teglarining belgilanishi

	O‘zbekcha qisqartma	**Xalqaro qisqartma**
Yordamchi fe’l	Yor	AUXVerb
O‘timli fe’llar	O‘tl	TranVerb
O‘timsiz fe’llar	O‘ts	IntrVerb
Ravishdosh	Rav	GerVerb
Sifatdosh	Sif	PartVerb
Harakat nomi	Harn	VerbN
Fe’lning aniq nisbat shakli	Aniqn	ActVerb
Fe’lning o‘zlik nisbat shakli	O‘zn	RFLVerb
Fe’lning orttirma nisbat shakli	Ortn	CauVerb
Fe’lning birgalik nisbat shakli	Birn	RcpVerb
Fe’lning majhul nisbat shakli	Majn	PassVerb
Fe’lning bo‘lishli shakli	Bo‘l	PosVerb
Fe’lning bo‘lishsiz shakli	Bo‘lsiz	NegVerb
Buyruq-istak mayli	Buymay	ImpVerb
Shart mayli	Shar	CndVerb
Maqsad mayli	Maq	NecVerb
Xabar mayli	Xab	GenVerb
O‘tgan zamon	O‘tz	PastVerb
Hozirgi zamon	Hozz	PresVerb
Kelasi zamon	Kelz	FutVerb
Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi	KFSQ	VP

[33]O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2006.

Birinchi shaxs	1sh	1Conj
Ikkinchi shaxs	2sh	2Conj
Uchinchi shaxs	3sh	3Conj

Yuqoridagi jadvalda berilgani kabi barcha so‘z turkumlarining grammatik kategoriyalari va lisoniy imkoniyatlari tanlangan teglar bilan belgilandi.

Teglar leksik yozuvlardan farq qiladi. Biz leksik qoidalarda mustahkamlangan birliklarning qisqartma nomlarini belgilashga harakat qildik. Lekin tadqiqotimizda grammatik shakl uchun qaysi tegning belgilanishi emas, balki korpus platformasida teglash masalasining hal qilinganligi, lingvistik tahlillar amalga oshirilganda muhim natijalarning olinishi bilan belgilanadi.

Nutq birliklarini annotatsiyalash jarayonida belgilangan teglar foydalanuvchiga noqulaylik tug‘dirmasligi uchun saytda qo‘llanma berilgan. Qo‘llanmada tegning to‘liq shakli va ingliz tilidagi standart belgisi ham berilgan. Korpusga yuklangan har bir matndagi nutq birligi teglar bilan izohlandi. Masalan, kontekstda *dorilarning* so‘zi lemma: dori <morf ot+Ko‘p+Qark, sem AnOT>, *keldim* so‘zi lemma: kel, <morf fe’l+O‘tz+Xab+1sh, sem Jisf>, *yozuvchining asari* so‘z birikmasi lemma: yozuvchi <morf ot+Bir+Qark+Yas, sem AOT>, lemma: asar <morf ot+Bir+3shE sem AnOt> sifatida teglanadi. Korpusning hozirgi imkoniyatlarida o‘zbek tilidagi matnlar morfologik va semantik xususiyatlariga ko‘ra annotatsiyalandi. Nutq birliklarida omonimlik muammosi yuzaga kelmasligi uchun, kontekst o‘rganilib, dasturda maxsus belgi orqali ajratildi va bu belgi filtr vazifasini bajaradi. Omonimlik xususiyatiga ega nutq birliklari uchun filtrda barcha grammatik shakllari belgilanadi, teglash jarayonida kontekst mazmunidan kelib chiqib, izohlanadi.

Ba’zi olimlar aynan nutq qismlarini teglash jarayoni tabiiy tilni qayta ishlashning muhim qismi deb hisoblashadi. Chunki teglash jarayonida til birligining nafaqat nutqda bajarayotgan vazifasi va o‘zi mansub kategoriyasiga ko‘ra teglansa, boshqa tomondan nutq qismining kontekstdagi semantikasi va pragmatikasini ham tushunish va hisobga olish zarur hisoblanadi. Chunki bir o‘rinda “ot” izohi ostida kelgan nutq birligi boshqa o‘rinda “fe’l” sifatida teglanishi mumkin. Hozir korpusda teglash va qidiruv jarayonini test sifatida bajarmoqdamiz. Nutq birliklarini teglayotganimizda so‘zning asosiy grammatik shakllarini olishga asosiy e’tiborni qaratdik. Masalan, ot-so‘z shaklni tavsiflash uchun Sh.Hamroyeva tadqiqotida ham ta’kidlanganidek egalik, kelishik, son kategoriyasi asosiy o‘rinni egallaydi[34].

Teglarning tanlanishi bo‘yicha aniq standart qoida ishlab chiqilmagan bo‘lsa-da, lekin bu yaratilayotgan har bir korpus oldiga qo‘yilgan maqsadga bog‘liq. Nutq qismlari izohlanishida morfologik annotatsiya tarkibiga til birliklarining lemmalari aniqlanishi ham kiritiladi. Izohlashgacha bo‘lgan jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Korpusda amallarni bajarish jarayonining algoritmi 1-rasmda berilgan.

[34] Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дисс. –Бухоро, 2018 .–253 б.



2.1.-rasm. Korpusda amallarni bajarish jarayonining ketma-ketligi

Bobning uchinchi fasli “O‘zbek tilidagi elektron axborot matnlari korpusini yaratishdagi o‘ziga xosliklar” deb nomlanib, mazkur faslda korpus qurilishidagi tokenlash, lemmalash va morfologik tahlil masalalari hal qilindi. O‘zbek tilidagi

elektron axborot matnlari korpusida tokenlarga ajratish avtomatik amalga oshirildi, nutq birligining lemmasini aniqlash qo‘l mehnati va yarim avtomatik bajarildi.

